



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

<https://laboreconomics.uz/>



IQTISODIY O'SISH BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA AHOLINI ISH BILAN BANDLIK DARAJASINI OSHIRISH

Fotimabonu Alisher qizi Doniyorova

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Inson resurslarini boshqarish” kafedrası katta o'qituvchisi, PhD

e-mail: Fatima_2010@mail.ru

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a15

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtisodiy o'sishning aholi turmush tarziga ta'siri bayon etilgan. Yoshlar bandligiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar tizimi tahlil qilingan. Yoshlar mehnat bozorini unga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillarga qarab rivojlantirish ssenariylari taklif etilgan. Ekonometrik modellar asosida aholi turmush darajasini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha o'rta muddatli prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan. Shuningdek, iqtisodiy o'sish barqarorligini ta'minlashda aholini ish bilan bandlik darajasini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mehnat bozori, yoshlarni ish bilan ta'minlash, iqtisodiy o'sish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, aholi turmush darajasi, yalpi ichki mahsulot, yalpi hududiy mahsulot, daromad.

ПОВЫШЕНИЕ УРОВНЯ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ В ОБЕСПЕЧЕНИИ СТАБИЛЬНОСТИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА

Фотимабону Алишер Қизи Дониёрова

ТГЭУ, Кафедра "Управление человеческими ресурсами"

Старший преподаватель, PhD

Аннотация. В этой статье описывается влияние экономического роста на образ жизни населения. Проанализирована система социально-экономических факторов, влияющих на занятость молодежи. Предложены сценарии развития молодежного рынка труда в зависимости от влияющих на него социально-экономических факторов. На основе эконометрических моделей разрабатываются среднесрочные прогнозные значения по основным показателям, отражающим уровень жизни населения. Также были разработаны научно обоснованные предложения по повышению уровня занятости населения при обеспечении стабильности экономического роста.

Ключевые слова: рынок труда, занятость молодежи, экономический рост, социально-экономическое развитие, уровень жизни населения, валовой внутренний продукт, валовой региональный продукт, доходы.

INCREASE THE EMPLOYMENT LEVEL OF THE POPULATION IN ENSURING THE STABILITY OF ECONOMIC GROWTH

Fatimabonu Alisher kizi Daniyorova

TSUE, “Human resources management” department
Senior teacher, PhD

Annotation. This article describes the impact of economic growth on the lifestyle of the population. A system of socio-economic factors affecting youth employment has been analyzed. Scenarios for the development of the youth labor market according to socio-economic factors affecting it have been proposed. On the basis of econometric models, medium-term forecast values are developed on the main indicators that represent the standard of living of the population. Also, scientifically based proposals have been developed to increase the employment level of the population in ensuring the stability of economic growth.

Key words: labor market, employment of young people, economic growth, socio-economic development, standard of living of the population, gross domestic product, gross regional product, income.

Kirish

Jahonda mehnatga layoqatli aholini, ayniqsa yoshlarni ish bilan bandligiga ko'maklashishni samarali tashkil qilish, ishsizlik darajasini qisqartirishga hayot sifati darajasini belgilovchi muhim mezon sifatida qaralmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra “jahonda 15 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan yoshlar 1,3 milliardga yaqin bo'lib, ularning ish bilan band bo'lishi nafaqat ular manfaatlarini, balki milliy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga uzoq muddatli va kafolatli hissa qo'shishlari uchun ham ahamiyatlidir”¹. Bugungi kunda yoshlar ishsizlik darajasining xalqaro miqyosda ortib borishi sharoitida ular bandligini ta'minlash va munosib ish o'rinlarini yaratish dolzarb muammolarda biri bo'lib qolmoqda.

Jahonda zamonaviy talablar va nostandart ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni e'tiborga olgan holda aholini, ayniqsa yoshlarni ish bilan ta'minlashning nazariy-uslubiy asoslarini, bandlikni tashkil qilish mexanizmlarini takomillashtirish borasidagi ilmiy-tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada global va milliy mehnat bozorlarida yoshlar bandligini tashkil qilish me'yorlarini uyg'unlashtirish, milliy mehnat standartlarini ilg'or xorijiy tajribaga ko'ra muvofiqlashtirish, ish bilan ta'minlashning ilg'or usullarini joriy etishning uslubiy asoslari va yondashuvlarni takomillashtirish kabi yo'nalishdagi tadqiqotlar ustuvor darajada amalga oshirilmoqda.

Shu boisdan ham global, mintaqaviy va milliy miqyosda aholi soni tendensiyalarini baholash, demografik ma'lumotlar to'plash va qayta ishlash hamda tahlil qilish asosida asosiy demografik istiqbollarni belgilash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

¹ Birlashgan Millatlar tashkiloti ma'lumotlari asosida// URL: <https://www.un.org/ru/global-issues/youth>

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Ma'lumki, mamlakatda doimiy aholi sonini turli rasmiy idoralarning funksional vazifalarini bajarishlari davomida shakllangan ma'lumotlar asosida aniqlab bo'lmaydi. Real aholi sonini aniqlashning yagona usuli bu – aholini yoppasiga hatlovdan o'tkazishdir. Ba'zi davlatlarda bu ommaviy so'rovlar o'tkazish tarzida ham amalga oshiriladi.

1960-yilning oxirlarida so'ng mikro darajadagi so'rov ma'lumotlari va ularni tahlil qilish uchun statistik vositalar mavjud bo'lganda, yanada tubdan o'zgarishlar yuz berdi. Axborotning asosiy manbai sifatida hayotiy statistik ma'lumotlarning asta-sekin so'rov ma'lumotlari bilan almashtirilishi demografiyadagi tadqiqot ko'lamiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi [2].

Ushbu tadqiqot turli demografik ma'lumotlarni to'plashda kelajakdagi tadqiqotlar uchun asos yaratadi. Inklyuziv demografik ma'lumotlarni to'plash nafaqat inklyuziv omillar, balki ushbu omillarni qanday boshqarish masalasi ham muhimdir[3].

Bunday integratsiya muayyan ijtimoiy-iqtisodiy omillar va turmush tarziga taalluqli chora-tadbirlarni ilgari surishga hissa qo'shishi mumkin va metabolizmni o'zgartirishga hamd ushbu muhim tadqiqot usulidan barqarorlikni rivojlantirish vositasi sifatida foydalanishga yordam berishi mumkin [4].

K.A.Hafner va D.Mayer-Foulkes fikricha, yuqori darajada daromad va inson taraqqiyoti – past tug'ilish o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud. Bu mutanosiblikning ijobiy tomonlari 1980-2007-yillarda kuzatilgan [5].

Huo Jie va boshqalarning fikricha esa barqaror rivojlanish tamoyillari iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarni qamrab oladi. Ya'ni, iqtisodiy tizimlar va ijtimoiy tuzilmalar rivojlanishi ijobiy demografik o'zgarishlarga olib keladi[6].

Bundan kelib chiqib aytish mumkin-ki, mamlakatning iqtisodiy o'sishi bevosita aholining demografik o'zgarishlari (aholi sonining o'sishi, turmush tarzi, insonlar taraqqiyoti va boshqalar)ga bog'liq. Bir so'z bilan aytganda iqtisodiy o'sish – inson taraqqiyoti o'zaro teskari ijobiy aloqaga ega.

Iqtisodiy o'sish - to'liq bandlik bilan mujassamlashgan ishlab chiqarish real hajmining uzoq muddat mobaynida o'sishidir. Iqtisodiy o'sish YaIM, davlat iqtisodiy qudrati va insonlar farovonligining o'sishida o'z ifodasini topadi. Shuningdek, iqtisodiy o'sish bevosita yalpi milliy mahsulot miqdorining mutloq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko'payishi hamda sifatning yaxshilanishida va tarkibining takomillashuvida ham ifodalanadi [7].


Demak, iqtisodiy o'sishga erishish va uning barqarorligini ta'minlash uchun aholi turmush darajasini yaxshilash muhim omil hisoblanadi. O'z navbatida yaxshi turmush darajasiga ega bo'lgan aholida taraqqiyotga intilish yuqori bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda jadval, qiyosiy tahlil, grafik tasvirlash, ekspert baholash, mantiqiy fikrlash, analitik taqqoslash, dinamik qatorlar, iqtisodiy-matematik usullar, ekonometrik modellar, usullar keng qo'llanilgan. Shuningdek, mazkur mavzuga oid xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari tahlil qilingan. Tahlillarda xalqaro va mahalliy rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalanilgan.


Tahlil va natijalar

Tahlillarga ko'ra, 2022-yilda yalpi ichki mahsulot (YaIM) 5,7 foiz, sanoat mahsulotlari 5,2 foiz, qurilish ishlari 6,6 foiz, qishloq xo'jaligi mahsulotlari 3,6 foizga, xizmatlar 15,9 foiz, eksport 15,9 foiz, chakana savdo aylanmasi 12,3 foiz o'sish sur'atlari kuzatildi (1-rasm).



1-rasm. 2022-yilda O'zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari² (foizda)

Ta'kidlash joizki, yalpi ichki mahsulot o'sishining 55,1 foizi xizmatlar, 23,3 foizi sanoat, 15,5 foizi qishloq xo'jaligi va 7,2 foizi qurilish sohalari hissasiga to'g'ri keladi.



2-rasm. 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi YaIM o'sish sur'atida tarmoqlar hissasi¹ (foizda)

² O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. <https://stat.uz>

Yalpi hududiy mahsulotning yuqori o'sish sur'atlari Andijon (8,6 foiz), Namangan (6,6 foiz), Samarqand (5,8 foiz), Xorazm (5,7 foiz) viloyatlari hamda Toshkent shahrida (7,9 foiz) kuzatildi.

Aholi jon boshiga YaIM hajmi 24919,7 ming so'mni tashkil etdi (o'sish 3,5 foiz). Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot (YaHM) hajmi 15249,4 ming so'mni, Andijon (16564,0), Buxoro (22975,6), Jizzax (18596,0), Qashqadaryo (14372,6), Navoiy (63832,1), Namangan (13864,4), Samarqand (15323,2), Surxondaryo (12561,6), Sirdaryo (20433,5), Toshkent (31499,2), Farg'ona (14219,1), Xorazm (16465,7), Toshkent shahrida (50675,3) ming so'm tashkil etgan. Bundan ko'rinib turibdiki, eng yuqori aholi jon boshiga YaHM hajmi Navoiy viloyati va Toshkent shahri hissalariga to'g'ri kelgan.

Agar jahon amaliyotida aholi turmush darajasini baholashning asosiy ko'rsatkichlaridan biri bu – aholi jon boshiga YaIM (YaHM) hajmi bo'ladigan bo'lsa, mamlakatimiz bo'yicha yuqoridagi ko'rsatkichni tarkibiy tahlil qilish lozim bo'ladi. Chunki, aholi jon boshiga YaIM (YaHM) hajmi to'g'ridan-to'g'ri YaIM (YaHM) hajmiga aholi sonining nisbati sifatida olish orqali to'liq baholab bo'lmaydi.

Bunda boshqa omillar bo'yicha taqqosmala tahlillar asosida qo'shimcha baholash lozim. Xususan, hududlar bo'yicha YaHM hajmi va aholi zichligi o'rtasidagi farqlarni ham hisobga olish maqsadga muvofiq.

1-jadval

2022-yilda O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari³

Hududlar	Yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmi, mlrd. so'm			1 kv.km ga to'g'ri keladigan aholi soni (yil boshiga)		
	2002	2012	2022	2002	2012	2022
O'zbekiston Res.	7 450,2	127 590,2	888 341,7	56	66	79
Qoraqalpog'iston Res.	214,3	3 561,6	29 925,4	9	10	12
Andijon	546,3	7 623,8	54 464,0	535	631	756
Buxoro	442,8	7 133,2	45 797,3	36	42	49
Jizzax	209,4	3 773,5	27 140,8	47	56	68
Qashqadaryo	559,8	10 872,1	49 520,8	79	97	119
Navoiy	380,9	6 528,8	66 685,4	7	8	9
Namangan	364,9	5 924,1	41 098,2	268	325	394
Samarqand	580,6	9 954,5	62 440,3	164	198	240
Surxondaryo	395,1	6 436,4	34 858,5	90	110	137
Sirdaryo	175,5	2 936,1	18 136,8	153	173	206
Toshkent	776,1	12 782,3	93 433,1	156	175	194
Farg'ona	727,2	9 113,0	55 972,1	407	485	577
Xorazm	283,5	4 793,4	31 963,1	225	269	318
Toshkent sh.	871,0	16 681,2	147 414,6	6 455	6 914	6 379

Tahlillarga ko'ra, 2022-yil ma'lumotlari bo'yicha mamlakatimizda yuqori YaHM hajmiga ega bo'lgan hududlarga Toshkent shahri 147414,6 mlrd. so'm, Toshkent 93 433,1 mlrd. so'm, Navoiy 66 685,4 mlrd. so'm, Samarqand 62440,3

³ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. <https://stat.uz>

mlrd. so‘m, Farg‘ona 55972,1 mlrd. so‘m, Andijon 54464,0 mlrd. so‘m va Qashqadaryo 49520,8 mlrd. so‘m bilan kirgan bo‘lsa, 2022-yil boshiga eng ko‘p aholining zich joylashuvi ya‘ni, 1 kv.km ga to‘g‘ri keladigan aholi soni bo‘yicha Buxoro 756 nafar, Xorazm (577), Samarqand (394), Toshkent shahri (318), Surxondaryo (240), Toshkent (206) va Farg‘ona (194) viloyatlari yetakchilik qilmoqda (1-jadval).

Bundan tashqari, doimiy aholi soni (yil boshiga) ko‘pligi bo‘yicha Samarqand viloyati 4031,3 ming kishi bilan yetakchilik qilsa, Farg‘onada 3896,40 ming kishi, Qashqadaryoda 3408,3 ming kishi, Andijon 3253,5 ming kishi, Toshkentda 2939,7 ming kishi, Toshkent shahrida 2862,4 ming kishi, Namanganda 2931,1 ming kishi va Surxandaryo 2743,2 ming kishi istiqomat qiladi.

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasining qiyosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari², foizda

Hududlar	YaIM hajmida YaHM hajmining ulushi			Doimiy aholi sonida hudud aholisining ulushi		
	2002	2012	2022	2002	2012	2022
O‘zbekiston Res.	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Qoraqalpog‘iston Res.	2,9	2,8	3,4	6,1	5,7	5,5
Andijon	7,3	6,0	6,1	8,9	9,2	9,2
Buxoro	5,9	5,6	5,2	5,8	5,8	5,6
Jizzax	2,8	3,0	3,1	4,0	4,0	4,1
Qashqadaryo	7,5	8,5	5,6	9,0	9,4	9,7
Navoiy	5,1	5,1	7,5	3,2	3,0	2,9
Namangan	4,9	4,6	4,6	7,9	8,2	8,3
Samarqand	7,8	7,8	7,0	10,9	11,3	11,4
Surxandaryo	5,3	5,0	3,9	7,2	7,5	7,8
Sirdaryo	2,4	2,3	2,0	2,6	2,5	2,5
Toshkent	10,4	10,0	10,5	9,5	9,0	8,3
Farg‘ona	9,8	7,1	6,3	10,9	11,1	11,0
Xorazm	3,8	3,8	3,6	5,5	5,5	5,5
Toshkent sh.	11,7	13,1	16,6	8,5	7,8	8,1

2-jadval ma'lumotlaridan ham ko‘rinib turibdiki, respublika hududlarida YaHM hajmi va hududdagi doimiy yashovchi aholi soni bir-biriga nomutanosib. Buni baholash uchun 2002, 2012 va 2022-yillar davomidagi YaIM hajmida YaHM hajmining ulushi bilan doimiy aholi sonida hudud aholisining ulushining farqlarini quyidagi formula orqali aniqlash lozim.

$$D_i = \frac{GDP_i}{GRP_i} \cdot 100 - \frac{PR_i}{RA_i} \cdot 100$$

bu yerda: D_i – YaIM hajmida YaHM hajmining ulushi bilan doimiy aholi sonida hudud aholisining ulushining farq;

GDP_i – YaIM hajmi;

GRP_i – YaHM hajmi;

PR_i – doimiy aholi soni;

RA_i – hudud aholisi soni.

Tahlillarga ko'ra, YaIM hajmida YaHM hajmining ulushi bilan doimiy aholi sonida hudud aholisining ulushining farq variatsion kengligi -3,7:5,6 oralig'iga tengligini ko'rsatdi. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasida(-2,8), Andijon (-2,6), Buxoro (-0,2), Jizzax (-1,1), Qashqadaryo (-2,1), Navoiy (2,9), Namangan (-3,4), Samarqand (-3,7), Surxondaryo (-2,7), Sirdaryo (0,3), Toshkent (1,4), Farg'ona (-3,3), Xorazm (-1,8), Toshkent shahrida (5,6) tashkil etdi.

Ma'lumki, har qanday iqtisodiy jarayonni yanada rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va uning samarasini oshirish uchun uni o'rganish, tahlil qilish va baholash talab etiladi. Chunki, eng optimal strategiyani tanlash va qabul qilish aniq natijadir [8]. Bunda, iqtisodiy jarayonlarni ekonometrik tahlil qilishda ko'rsatkichlar bo'yicha keyingi davr uchun prognoz qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu kelajakdagi erishish mumkin bo'lgan natijalarni oldindan bilish imkonini beradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning vaqt omili bo'yicha o'zgarishini prognozlashda odatda eksponensial trend modelidan foydalaniladi.

$$y = a_0 e^{a_1 t} + \varepsilon$$

bu yerda: y - kutilayotgan prognoz ko'rsatkich;

t – vaqt omili; e (2,718) – natural logarifm asosi.

Tahlillarga ko'ra, 2022-yilda respublikada aholi jon boshiga yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmi 24919,7 ming so'm, o'sish sur'ati 103,5 foizni, aholi jon boshiga real umumiy daromadlar 15979,3 ming so'm, o'sish sur'ati 107,5 foizni tashkil etgan (3-jadval).

3-jadval

Aholi turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar⁴, ming so'm

Ko'rsatkich	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Aholi jon boshiga yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmi	4 285,2	5 069,3	6 074,2	7 072,2	8 020,1	9 802,1	12 945,7	15 863,8	17 688,5	21 149,2	24 919,7
Aholi jon boshiga yalpi ichki (hududiy) mahsulotning o'sish sur'ati, %	105,5	105,6	105,1	105,4	104,1	102,7	103,7	104,0	100,1	105,3	103,5
Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar	3267,8	3902,7	4472,0	5127,5	5887,9	6681,4	7767,0	9509,6	10734,3	13416,8	15979,3
Aholi jon boshiga umumiy daromadlarining o'tgan yilga nisbatan real o'sish sur'ati, %	111,6	111,4	107,1	107,7	108,8	107,5	106,2	104,2	98,6	110,7	107,5

Eviews kompyuter dasturiy mahsulotidan foydalangan holda statistik ma'lumotlar asosida yoshlar bandligiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni aniqlash va uni yanada rivojlantirishni prognoz qilish maqsadida iqtisodiy faol aholi tarkibida band bo'lgan yoshlar ulushining quyidagi ijtimoiy-

⁴ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. <https://stat.uz>

iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlariga bog'liqligining ekonometrik modeli tuzilgan: aholi jon boshiga YaIM o'sishi (x_1), %; aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarni o'zlashtirish darajasi (x_2),%; yangi tashkil korxonalar soni (x_3), birlik; 15-29 yoshdagi aholi soni (x_4), nafar; o'rta maxsus ma'lumotli yoshlarning ulushi (x_5), %; oliy ma'lumotli yoshlarning ulushi (x_6),%; chet elga ketgan yoshlarning ulushi, (x_7), %.

4-jadval

Regressiya modelining asosiy xususiyatlari ⁵

Erksiz o'zgaruvchi	Iqtisodiy faol aholi tarkibida ish bilan band yoshlarning ulushi	Hisoblangan ko'rsatkichlar	Jadval ko'rsatkichlari	Ahamiyatini aniqlash
Erkli o'zgaruvchi	Regressiya koeffitsienti	t-Statistic		
Konstanta	-126,58	-2,553018	2,132	Ahamiyatli
x_1	1,317594	2,498020		Ahamiyatli
x_2	0,034237	1,025930		Ahamiyatli emas
x_6	2,823898	3,220859		Ahamiyatli
x_7	-0,210041	-1,520337		Ahamiyatli emas
R^2	0,826233			
$F(R^2)$		7,132245	4,53	Ahamiyatli
DW		2,527859	$d_L = 0,69$; $d_U = 1,97$	Ahamiyatli
Tanlov hajmi		n=11; 2010:2020		

Korrelyatsiya koeffitsientlari shuni ko'rsatdiki, oliy ma'lumotli yoshlarning ulushi (74%) va iqtisodiy o'sish indikatorlari (47%) yoshlar bandligi ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, tahlillar shuni ko'rsatdiki, x_3 (yangi tashkil etilgan korxonalar soni), x_4 (yoshlar soni) va x_5 (o'rta maxsus ma'lumotli yoshlarning ulushi) omillari natijaga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi va ular o'rtasida multikollinearlik kuzatiladi. Shu munosabat bilan model faqat to'rtta omillardan foydalangan holda tuzilgan: x_1 , x_2 , x_6 , x_7 .

Bitta ildiz borligini tekshirish uchun kengaytirilgan Dikki-Fuller testi u dinamik qatorning statsionarligini ko'rsatdi, uning lag 2 ga teng, bu sonli shaklda ko'p regressiyani tuzish uchun asos yaratdi:

$$y = -126,58 + 1,31 \cdot x_1 + 0,03 \cdot x_2 + 2,82 \cdot x_6 - 0,21 \cdot x_7$$

Ushbu model yoshlarning bandlik darajasidagi o'zgarishlarning 83 foizini tushuntiradi.

Styudent va Fisher mezonlariga ko'ra, regressiya koeffitsientlarining aksariyati va tenglamaning o'zi statistik ahamiyatga ega. Darbin-Uotson statistikasiga ko'ra qoldiqlarni avtokorrelyasiya mavjudligi uchun tekshirish bizga avtokorrelyasiya yo'q degan xulosaga kelishimizga imkon beradi, bu modelning sifati yuqori ekanligini tasdiqlashdan biri hisoblanadi. Butun model uchun H_0 nol gipotezani qabul qilish ehtimoli 1,8% ni tashkil qiladi. O'rtacha taxminiy xato 2,4% qiymatga ega. Shunday qilib, muqobil gipotezani va

⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

umuman modelning adekvatligini qabul qilish kerak degan xulosaga kelish mumkin.

Tenglama har bir omilning boshqalari o'zgarmagan holda natijador ko'rsatkichga miqdoriy ta'sirini aks ettiradi, ya'ni ish bilan band bo'lgan yoshlarning iqtisodiy faol aholi sonidagi ulushi: aholi jon boshiga YaIM darajasi 1% ga oshganda 1,31% ga oshadi; aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarni o'zlashtirish sur'atlari 1%ga oshganda - 0.03%ga oshadi; oliy oliy ma'lumotli yoshlarning ulushi 1%ga oshganda - 2.82%ga oshadi; chet elga ketgan yoshlarning ulushi 1%ga oshganda, - 0.21%ga kamayadi.

Olingan model asosida prognoz qilish uchun model qoldiqlarining avtokorrelyatsiyasi va geteroskedastikligi borligi (yo'qligi) uchun test o'tkazildi. Breush-Godfri testi 82,8% ehtimollik bilan avtokorrelyatsiya yo'qligini tasdiqlaydi. Breush-Pagan-Godfri testi shuni ko'rsatdiki, 45% ehtimollik bilan geteroskedastiklik yo'qligi haqidagi nol gipotezani qabul qilish mumkin. Va nihoyat, 67% ehtimollik bilan Gleyzer testi modelning gomoskedastikligi haqidagi nol gipotezani qabul qilish kerak degan xulosaga kelishimizga imkon beradi.

5-jadval


Yoshlar mehnat bozorining prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston 2022-2026-yillarda, % ⁶

Yillar	Iqtisodiy faol aholi tarkibida band bo'lgan yoshlarning ulushi (u)	Aholi jon boshiga YaIMning o'sish sur'ati (x1)	Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarni o'zlashtirish darajasi (x2)	Oliy ma'lumotli yoshlarning foizi (x6)	Jami chet elga ketganlarning orasida chet elga ketgan yoshlarning ulushi,
2022	31,055	101,929	121,404	8,373	21,285
2023	31,094	101,581	122,925	8,414	19,712
2024	31,133	101,233	124,447	8,455	18,138
2025	31,173	100,885	125,969	8,495	16,565
2026	31,212	100,536	127,491	8,536	14,991

Prognoz ko'rsatkichlari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ish bilan band bo'lgan yoshlarning ulushi yildan-yilga oshib boradi, bu Respublika yoshlar mehnat bozori istiqbollarining ijobiy dinamikasini tavsiflaydi (5-jadval).

Respublika mehnat bozorini rivojlantirishning innovatsion ssenariysi iqtisodiy o'sish sur'atlarini 100,5% ga va asosiy vositalarga investitsiyalarni 2026-yilga borib 127,5% ga oshirishni nazarda tutadi, bu holda ish bilan band bo'lgan yoshlarning iqtisodiy faol aholi tarkibidagi ulushi maksimal ko'rsatkichga ega bo'ladi, bu esa mehnat bozorini innovatsion iqtisodiyot sharoitida rivojlantirish uchun turtki bo'lib xizmat qiladi.

⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



3-rasm. Yoshlar mehnat bozorini unga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillarga qarab rivojlantirish ssenariylari⁷

Oliy ma'lumotli yoshlar sonining 20% ga ko'payishi va chet elga ketgan yoshlarning ulushi 2020-yilda 30,7 %dan 2026-yilda 15 %gacha pasayishi optimistik ssenariyda aks ettirilgan bo'lib, mamlakat hukumati tomonidan yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha tub o'zgarishlarni qabul qilish zaruriyatini keltiradi, chunki bu yoshlar mehnat bozorida ishsizlikning yangi to'lqini va unga hamroh bo'lgan barcha salbiy jarayonlarning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Ma'lumotlar panelining prognozli modelidan foydalangan holda olingan natijalarga ko'ra, 83% ehtimollik bilan 2026-yilga kelib iqtisodiy faol aholi tarkibida band bo'lgan yoshlar ulushi 31,2%ga yetmasligi, joriy ko'rsatkichlardan atigi 0,2% ga oshgani va bu rivojlangan mamlakatlardan respublika aholisining ijtimoiy-iqtisodiy kechikishini kuchaytirishi mumkinligi aniqlandi. Bu, o'z navbatida, mehnat bozoriga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni yumshatish bo'yicha strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab qiladi. Davlat hududida samarali yoshlar mehnat bozorini shakllantirish maqsadlariga davlat siyosati xizmat qiladi, uning muhim yo'nalishlaridan biri yoshlar bandligini samarali boshqarish bo'lishi kerak.

Shunday qilib, O'zbekistonning barqaror iqtisodiy o'sishi va innovatsion rivojlanishga o'tishini ta'minlaydigan samarali yoshlar mehnat bozorini shakllantirish mexanizmini takomillashtirishning asosiy masalasi bo'lib qolmoqda. Buning uchun, bizning fikrimizcha, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning o'zlari yosh kadrlarni ishga qabul qilishdan, passiv strategiyadan rivojlanish strategiyasiga o'tishdan manfaatdor bo'lishi muhimdir. Korxonalarga imtiyozlar va yengiliklar berishning mavjud mexanizmiga o'zgartirishlar kiritish, yosh mutaxassislarni jalb qilishning ustuvorligini belgilash zarur, bu esa davlat moliyaviy yordami bilan qo'llab-quvvatlanadi. Bundan tashqari,

⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

mehnat bozoriga ta'sir etuvchi omillar va tashqi va ichki mehnat migratsiyasi jarayonlarini muntazam ravishda tahliliy o'rganish muhim ahamiyatga ega. Yoshlar bandligi sohasida samarali davlat siyosatini shakllantirish pirovardida butun milliy iqtisodiyot samaradorligini oshiradi.

Xulosa va takliflar

Fikrimizcha, mamlakatimizda iqtisodiy o'sish barqarorligini ta'minlashda aholini ish bilan bandlik darajasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiq:

- yuqori daromadli qo'shimcha ish o'rinlarini tashkil etgan tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish;
- real sektordagi korxonalarga (ijtimoiy obyekt) yo'naltirilayotgan ichki va tashqi investitsiyalarni maqsadli ishlatilishida jamoat nazoratchiligini kuchaytirish orqali ulardan foydalanish samaradorligini oshirish;
- aholining o'z-o'zini band qilish bo'yicha ajratilayotgan mikrocredit mablag'larini ta'minotchi tashkilotlarga emas, balki, aholining o'ziga naqd yoki bank plastik kartalariga o'tkazish amaliyotini joriy etish orqali uning samarasini oshirish;
- monopoliyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini oshirish va sog'lom raqobatni ta'minlashga shart-sharoitlar yaratish;
- aholi turmush tarzini har tomonlama yaxshilash maqsadida olis hududlarda joylashgan ijtimoiy obyektlar shart-sharoitlarini yanada yaxshilash, jumladan ta'lim muassasalaridagi sharoitlarni yaxshilash lozim.

Yoshlarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradigan mexanizmlarni shakllantirish, bu birinchi navbatda, yoshlarning intellektual salohiyatini mustahkamlashni, ularning oliy, shuningdek, o'rta maxsus ma'lumot va kasb-hunar egallashi uchun sharoit yaratishni talab qiladi.

Investitsiyalarni qo'shimcha jalb qilish, mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiyotni moliyalashtirish uchun ajratiladigan byudjet mablag'laridan samarali foydalanish, respublikaning raqobatbardosh ustunliklaridan maksimal darajada foydalanish hisobiga ijtimoiy ishlab chiqarish hajmini va yangi tashkil etilayotgan korxonalar sonini yanada oshirish mumkin.

Intellektual va jismoniy mehnat bilan shug'ullanadigan yuqori malakali yoshlarning ish haqini oshirish, bu esa yosh avlodning boshqa mamlakatlarga migratsiyasini kamaytiradi.

O'rta va uzoq muddatli prognozlarni amalga oshirish va ular asosida samarali davlat bandlik siyosatini shakllantirish maqsadida iqtisodiy va matematik modellashtirish usullaridan foydalangan holda yoshlar mehnat bozori ko'rsatkichlari dinamikasini har tomonlama tahlil qilish.

Mehnatga bo'lgan talabni oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, bu yoshlar ishchi kuchiga kirganda, ayniqsa dastlabki ish paytida korrupsiyaga qarshi samarali choralarni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda so‘ngi yillarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida oxirgi o‘n yillikda aholi jon boshiga yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmi qariyb 20,6 mln. so‘mga oshgan bo‘lsa, shu davrda o‘shish sur‘ati o‘rtacha 104,1 foizni tashkil etgan. Shuningdek, aholi jon boshiga real umumiy daromadlar 12,7 mln. so‘mga oshgan bo‘lsa, o‘rtacha o‘shish sur‘ati 107,4 foizni tashkil etgan. Ta’kidlash joizki, bularning barchasi aholi turmush darajasining yaxshilanib borayotganligini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. United Nations. World Population Prospects 2022: Summary of Results. United Nations New York, 2022, p.3. <https://www.un.org>
2. Ting Li., Yu Xie. The evolution of demographic methods // Social Science Research. Volume 107, September 2022, 102768. <https://doi.org/10.1016/j.ssresearch.2022.102768>
3. K.Rupinski, S.Berger, B.Klooster, A.Moreno-Koehler, N.Ibrahim, G.Dickie. PCR119 Who We Are Matters: Inclusive Demographic Data Collection in Patient-Centered Outcomes Research // Value in Health. Volume 25, Issue 12, Supplement, December 2022, Page S413 <https://doi.org/10.1016/j.jval.2022.09.2054>
4. Meidad Kissinger, Yuval Damari. Household metabolism: Integrating socio-economic characteristics and lifestyles on individual and national scales as a mean for advancing environmental management // Journal of Environmental Management. Volume 279, 1 February 2021, 111526 <https://doi.org/10.1016/j.jenvman.2020.111526>
5. Hafner K.A., Mayer-Foulkes D. Fertility, economic growth, and human development causal determinants of the developed lifestyle // Journal of Macroeconomics. Volume 38, Part A, December 2013, Pages 107-120 <https://doi.org/10.1016/j.jmacro.2013.04.001>
6. Huo Jie and et. Sustainable energy policy, socio-economic development, and ecological footprint: The economic significance of natural resources, population growth, and industrial development // Utilities Policy. Volume 81, April 2023, 101490 <https://doi.org/10.1016/j.jup.2023.101490>
7. Махмудов Н.М., Хомидов С.О., Джалилов А.А. Иқтисодий ўсиш моделлари. Ўқув қўлланма. Т.: ТДИУ, 2015. 248 б.
8. Дониёрова Ф.А. Институциональная среда регулирования занятости молодёжи Узбекистана // Иқтисодиёт ва таълим. 2022. №6. С. 40-46. (08.00.00. №11).
9. Doniyorova F.A. Foreign experience in increasing employment and reducing youth unemployment // Economics and Innovative Technologies / 2021.Vol. Number 5. Article 5. (08.00.00; №10).
10. Дониёрова Ф.А. Стратегии поведения молодежи на современном рынке труда Узбекистана» // Бизнес-Эксперт. 2020. 11-12(155-156)74-78 (08.00.00; №3).

11. Doniyorova F.A. Theoretical and methodological aspects of evaluation of brand loyalty of meat and meat product // Актуальные научные исследования в современном мире. Журнал Science. 2021. Выпуск 5 (73) №4. 8-14
12. Doniyorova F.A. Problems of employment and labor market in China // International journal of research management and business studies. 2019. Vol.6. Issue-2. Pp. 25-31.
13. Doniyorova F.A. Opportunities of use of personnel mobile services on the work of the labor market // Asian journal of technology and management research. 2019. Vol. 9 – Issue: 1 Pp 34-42
14. <https://stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy sayti.
15. <https://mehnat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining rasmiy sayti.
16. <https://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi.